

Ona tili va adabiyot


1. Qaysi maqol tarkibida ikki o'rinda jarangli til undoshlaridan iborat so'z qatnashgan?
A) Maqtanma g'oz, hunaring oz.
B) Sinamagan otning sirtidan o'tma.
C) Aybsiz do'st axtargan do'stsiz qolar.
D) Bugungi ishni ertaga qo'yma.
2. Qaysi gapda II shaxs birlik shaklidagi shaxs-son qo'shimchasi I shaxs birlik ma'nosini ifodalagan?
A) Siz ham menga juda yoqasiz – dedi dugonasiga.
B) Borib so'rasang, o'shqirib beradi. Qo'rqadi odam...
C) O'libmizmi, akaxon, bizam tushunamiz, ishingiz nozik, ha.
D) Chiroyli joylar ko'p, qarab to'ymayсан kishi.
3. Qaysi javobda ko'chma ma'nodagi so'z ishtirok etmagan?
A) G'azal ham bo'lurmi buncha dilrabo, Bunchalar serishva, bunchalar tannoz?
B) Bulut bugun o'zining ko'kish ko'ylagini erinmay yuvishga tushdi, shekilli, yomg'ir tinmadi.
C) Men gulzordagi chiroyli gullardan guldasta yasab oyimga sovg'a qildim.
D) Bu achchiq gapni eshitgan zahotimoq peshonamdan sovuq ter chiqib ketdi, yuragimni qo'rquv eza boshladi.
4. *Hozir ko'nglimga qil sig'mayapti, keyinroq gaplashamiz.*
Ushbu gapda qatnashgan gap bo'laklari tartib bilan berilgan javobni toping.
A) hol, to'ldiruvchi, kesim, hol, kesim
B) hol, to'ldiruvchi, ega, kesim, hol kesim
C) hol, hol, ega, kesim, hol, kesim
D) hol, kesim, hol, kesim
5. Quyida berilganlardan nechitasi sof modal so'z hisoblanadi?
ehtimol, nihoyatda, masalan, hamda, shekilli, shubhasiz, xolos.
A) 2 tasi B) 5 tasi C) 3 tasi D) 4 tasi
6. Qaysi gapda izohlovchi aniqlovchi vazifasidagi so'zda paronimlar bilan bog'liq xatolik mavjud?
A) Besh asrkim nazmiy saroyni Titratadi zanjirband bir she'r.
B) Shox Mashrab qoni senda Urdu tug'yon, o'zbeğim.
C) Azm daryolar ham kamar bo'lolmas, Qo'shilib chulg'ansa sening belingga.
D) Ko'zlarni debdilar: "Ruxning ko'zgusi". Ularda namoyon qalbning sezgisi.
7. Qaysi javobda imloviy jihatdan xato yozilgan joy nomlari berilgan?
1) Guliston davlat universiteti; 2) Osiyo taraqqiyot banki; 3) Oliy xo'jalik sudi; 4) "Lazzat" nomli oshxonona; 5) Sog'liqni Saqlash Vazirligi; 6) O'zbekiston Milliy universiteti.
A) 2, 3, 4, 5 B) 1, 3, 5, 6
C) 2, 4, 5 D) 2, 3, 6
8. Yakka shaxsga ishora qilib hurmat ma'nosini ifodalagan **ular** olmoshi qatnashgan gapni toping.
A) Har ikkisi ham musobaqada qatnashmoqda. Ular, albatta, g'alabani qo'lga kiritadi.
B) Yer yuzida tillar ko'p. Olimlarning hisob-kitobiga ko'ra ularning miqdori 7000 ga yaqin.
C) Oyimlar oqila va mehnatkash ayol. Ular tikuv ishlari bilan shug'ullanadilar.
D) Bizning o'quvchilarimiz nihoyatda faol. Ular har bir savolga zukkolik bilan javob berishadi.
9. Qaysi javobdagi so'zlar juftligi tub va yasama so'zlarga mansub emas?
A) ezma (belgi bildiruvchi so'z) – ezma (harakat bildiruvchi so'z)
B) o'rim (yig'im-terim jarayoni) – o'rim (sochning o'rilgan holati)
C) to'la (belgi bildiruvchi so'z) – to'la (harakat bildiruvchi so'z)
D) yo'llar (nom bildiruvchi so'z) – yo'llar (harakat bildiruvchi so'z)
10. *Yaproqlar tebrantar she'r maqomiga, Chechaklar jimgina egib turar bosh. Marmar sarhovuzning kumush jomiga Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.*
Ushbu gapda qatnashgan so'z birikmalari haqida berilgan noto'gri hukmni aniqlang.
A) Hokim qismga kelishik va ko'makchilarsiz bog'langan holli so'z birikmasi ishtirok etgan.
B) Vositali to'ldiruvchilar faqat tobe qism vazifasini bajargan.
C) Qismlari kelishik va ko'makchilarsiz bog'langan otli so'z birikmasi ishtirok etgan.
D) Hokim qismi qaratqich aniqlovchi

- vazifasida kelgan aniqlovchili so'z birikmasi ishtirok etgan.
11. Qaysi gapda ravish turkumidagi zid ma'noli so'zlar ishtirok etgan?
 A) Do'st achitib gapiradi, dushman kuldirib.
 B) Yaxshidan bog' qoladi, yomondan – dog'.
 C) Avval o'yla, keyin so'yla.
 D) Oqni qoradan ajratishni o'rgan.
12. Qaysi gapda so'zlarning teng bog'lanishi (so'z qo'shilmasi) mavjud emas?
 A) Bu bog'lar Samarqanddagi boshqa bog'lardan o'zining tengsiz tarovati, ulug'vorligi va nafosati bilan ajralib turadi.
 B) Insonni chiniqtiradigan, uning vujudini sog'lom qiladigan jismoniy mashqlar bo'lsa, ma'naviyatini boyitadigan vosita badiiy adabiyotdir.
 C) Unga nisbatan uyg'ongan nafrat hamda zulm o'ti azob otashidan ustun keldi.
 D) Tansiq goh shop-shup suv kechib yuradi, goh uning oyoqlari yelimday loyga botadi.
13. Qaysi so'zlarda nuqtalar o'rnida i unlisi yoziladi?
 1) tush...nmoq; 2) tug'...lmmoq; 3) qur...lmoq;
 4) tush...rmoq; 5) yug...rmoq
 A) 1, 4, 5 B) 2, 3, 4 C) 3, 4, 5 D) 1, 5
14. Qaysi gapda tinish belgisi bilan bog'liq xatolik mavjud?
 A) Ey donishmand, ayting-chi, kishi uchun eng yaxshi narsa nima?

- B) Insonda yuz ham, kiyim ham, qalb ham, fikr ham, go'zal bo'lishi kerak.
 C) Sharm-hayo – insonning eng ulug' fazilati.
 D) "Alpomish" dostoni o'zbek xalq og'zaki ijodining betimsol namunasidir.

15. *Bilmam, nima edi maqsading,
 Menga bir juft guling atading.
 Birin otin Kumush atading,
 Birin otin Zaynab qo'yding-ku.*
 Ushbu she'riy parchadagi qaratqich va tushum kelishigidagi so'zlar sonini aniqlang.
 A) Parchada ikki o'rinda qaratqich, ikki o'rinda tushum kelishigidagi so'z qatnashgan.
 B) Parchada ikki o'rinda qaratqich, uch o'rinda tushum kelishigidagi so'z qatnashgan.
 C) Parchada uch o'rinda qaratqich, ikki o'rinda tushum kelishigidagi so'z qatnashgan.
 D) Parchada to'rt o'rinda tushum kelishigidagi so'z ishtirok etgan.

16. Quyidagi chizmaga mos keluvchi ergashgan qo'shma gapni aniqlang.



- A) Ilmsiz inson – mevasiz daraxt, shuning uchun har vaqt ilm olish ilinjida bo'l.
 B) Odobli odam tabibga o'xshaydi, chunki u bilan suhbatlashish ko'ngildagi g'amni yuvadi.
 C) Shu mo'jaz uyimda yonsin deb chiroq, Ne aziz zotlarga yondashdim gohi.
 D) Ishonchim komilki, qasd qilgan past bo'ladi.

Matnni o'qing va ushbu matn asosida berilgan quyidagi ikkita topshiriqni bajaring.

TARJIMAYI HOL

1. Men, Abdullayeva Nafisa Rustam qizi, 2003-yilning 4-iyunida Xorazm viloyatining Xiva shahrida xizmatchi oilasiga tug'ildim.

2. Otam – Abdullayev Rustam «Barkamol avlod» sport sog'lomlashtirish markazida murabiy bo'lib ishlaydi. Onam – Abdullayeva Hulkar 30-umum ta'lim maktabida matematika fanidan dars beradi. Oilada 5 kishimiz. Singlim – Ra'no 5-sinfda, ukam – Zafar 3-sinfda o'qiydi.

3. 2010-yili Xiva shahridagi 30-umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga qabul qilindim. Hozir ushbu maktabning 6-sinfida o'qimoqdaman. Ona tili va adabiyot tarix fanlariga qiziqaman, suvda suzishni yaxshi ko'raman. Maktabdagi jamoat ishlarida faol qatnashaman, sinfimiz devoriy gazetasining doimiy mualliflaridanman.

Yashash manzili: Xiva shahri, Obod ko'chasi, 11-uy.

17. Ushbu TARJIMAYI HOL matnining raqamlab ko'rsatilgan bandlarida ro'y bergan xatoliklar turi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 A) 1 – imloviy xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 3 – ishoraviy (puntuatsion) xatolik
 B) 1 – ishoraviy (puntuatsion) xatolik; 2 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 3 – imloviy xatolik
 C) 1 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik; 2 – imloviy xatolik; 3 – ishoraviy (puntuatsion) xatolik
 D) 1 – imloviy xatolik; 2 – ishoraviy (puntuatsion) xatolik; 3 – qo'shimcha qo'llash bilan bog'liq uslubiy xatolik
18. Ushbu TARJIMAYI HOL matnining raqamlab ko'rsatilgan bandlari mazmuniga oid xato hukmi aniqlang.
 A) Matnning ikkinchi qismida tarjimai hol egasining oilasi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.
 B) Matnning birinchi qismida tarjimai hol egasi haqida shaxsiy ma'lumotlar bayon qilingan.
 C) Matnning uchinchi qismida mazkur tarjimai hol egasining o'qish hamda jamoat ishlaridagi sifatleri va qiziqishlari bayon qilingan.
 D) Matnning har uchala qismida tarjimai hol egasi haqida ma'lumotlar bayon qilingan.
19. 1925-yilgacha yozgan asarlarini jamlab, "Biz boramiz!" nomi ostida she'rlar va dostonlardan iborat dastlabki to'plamini yaratadi. 1929-yilda "O'rtoqqa", 1934-yilda esa "Ordenli millionerlar" nomli kitoblarini chop ettiradi.
 Ushbu ma'lumotlar qaysi ijodkor haqida?
 A) Musa Jalil
 B) Sergey Yesenin
 C) Asqad Muxtor
 D) Xayriddin Saloh
20. Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" asari haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
 A) Ushbu asarda Rahmon polvonning kurashda bir boragina yiqilganini ko'tara olmay o'lib ketishi tasvirlanadi.
 B) Mazkur qissa sho'ro davri adabiyotidagi ko'plab boshqa asarlardan oxiri "umidbaxsh sadolar bilan" tugamasligi jihatidan ajralib turadi.
 C) Unda Ochil bobo shajarasida unib qolgan "mo'rt bir barg" – Akbarali ismli konchi yigit taqdiri hikoya qilinadi.
 D) Asar qahramonidek yozuvchi ham noyob urf-odatlarimiz, ko'hna ma'naviy boyliklarimiz asta-sekin unutilishi, borib-borib esa yo'q bo'lib ketishidan jiddiy xavotirga tushadi.
21. Birovlarning dard-u tashvishi, olamda bo'layotgan ming turli ishlar yetti uxlab tushiga kirmaydigan, dunyoda faqat o'zimiz bo'lay deb yashaydiganlar xilidan bo'lgan Abdug'aniboy qaysi asar qahramon sanaladi?
 A) "Bemor"
 B) "Shum bola"
 C) "Dahshat"
 D) "Urushning so'nggi qurboni"
22. Qaysi javobda Odil Yoqubovning qissa va hikoyalar to'plami berilgan?
 A) "Tengdoshlar"
 B) "Ikki muhabbat"
 C) "Tilla uzuk"
 D) "Diyonat"
23. ... uncha-muncha to'y-u azalarga «kavshim ko'chada qolg'an emas» deb bormas edi. Shuning uchun xotinlar o'z to'ylarini ... ishtiroki bilan o'tkazib olsalar, o'zlarini shaharning eng baxtlik xotinlaridan sanab «maning to'yimni bek oyim o'z qo'llari bilan o'tkazdilar» degan jumlaning majlislarda iftixor o'rnida so'zlab yurar edilar. ...ning obro'si yolg'iz shular bilangina cheklanib qolmas, uni o'rda xonimlari ham ehtirom qilib o'zlarining «onaxonlari» deb bilar edilar.
 «O'tkan kunlar» romanidan olingan ushbu parchada qaysi obraz tasvirlangan?
 A) Oftob oyim B) Xushro'y
 C) Mohira oyim D) O'zbek oyim
24. Qaysi qatorda Yusuf Xos Hojib haqida ma'lumot berilgan?
 A) U turkiy tildagi dastlabki yirik yozma doston muallifi hisoblanadi.
 B) U Payg'ambarlar haqidagi qissalardan iborat asar yaratgan.
 C) U turkcha-arabcha lug'atning ilk namunasini yaratgan.

- D) U o'zbek adabiyoti tarixida ilk marta maqta'da taxallus qo'llagan.
25. G'.G'ulomning "Vaqt" she'ri haqida berilgan ma'lumotni aniqlang.
- A) She'rda polizkapada yulduz sanab yotgan bolaning sajiyasi va ichki dunyosi tasvirlanib, lirik qahramonning "bola baxti"ni topolmaganligi tilga olinadi.
- B) She'rda shuhratparastlikka intilib ibodatxonani yoqib yuborgan Gerostratning qilmishi yodga olinadi.
- C) She'ming dastlabki satrlari tushdagi o'lim tasviri bilan boshlanib, o'lib yotgan lirik qahramonga avarcha so'zlar eshitilgach tirilib ketishi ifoda etiladi.
- D) She'rda "o'zbek otasi"ning bo'rtma, umumiy, hamma uchun tanish, yaxlit siymosi yorqin ifodasini topgan.
26. "Saodat ul-iqbol" nomli asar muallifini aniqlang.
- A) Xoja B) Ogahiy
C) Jomiy D) Avaz O'tar
27. *Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibr-u havo nimaga kerak?* – satrlari bilan boshlanuvchi she'rida, choynak va piyola obrazlari orqali inson bolasining kamtarin bo'lishiga chaqirig'ini ifodalagan ijodkorni toping.
- A) Erkin Vohidov
B) Muhammad Yusuf
C) Abdulla Oripov
D) Asqad Muxtor
28. Xalq dostonlaridan qaysi birida Qovishtixon, Shohdorxon, Jig'alixon, Odilxon kabi hukmdorlar haqida so'z boradi?
- A) «Alpomish»
B) «Kuntug'mish»
C) «Go'ro'g'lining tug'ilishi»
D) «Rustamxon»
29. Qaysi javobda Oybekning qalamiga mansub bo'lgan asarlar berilgan?
- A) "Tirik sayyoralar", "Hozirgi yoshlar"
B) "Kuzatish", "Men – yahudiy"
C) "Front bo'ylab", "Olovli yo'llar"

D) "Turnalar", "Mening yigit vaqtim"

30. *Bu qahramon Bobur vafotidan so'ng «Boburnoma»dan ko'chirilgan nusxalarni adibning Andijon, Toshkent va Samarqanddagi muxlislariga eltib topshirgach, xotini bilan birga Quvaga qaytadi va ular umrlarining qolgan qismini tug'ilgan yurtlarida o'tkazadilar. Biroq o'g'illari Safarbek Agrada umrbod qolib, o'sha yerda oila qurib, hind xalqiga qo'shilib ketadilar.*
- Ushbu mulohazalar «Yulduzli tunlar» romanidagi qaysi qahramon haqida?
- A) Qosimbek B) Tohir
C) Mamat D) mulla Fazliddin

Islombek Karimov